



## OLAMNING LISONIY MANZARASI MUAMMOSINING O`RGANILISHI

Pirnazarova Dilbarxon Abdullajon qizi

Qo`qon davlat pedagogika instituti

2-bosqich tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada olamning lisoniy manzarasi tadqiqiga oid jahon tilshunosligida bildirilgan fikrlar hamda o`zbek tilshunosligida mavzuning o`rganilishi yuzasidan ilmiy fikr va xulosalar qayd etilgan.

**Аннотация:** В данной статье отмечены мнения, высказанные в мировой лингвистике относительно изучения языкового ландшафта мира и научные мнения и выводы относительно изучения темы в узбекской лингвистике.

**Annotation:** In this article, the opinions expressed in world linguistics regarding the study of the linguistic landscape of the world and scientific opinions and conclusions regarding the study of the topic in Uzbek.

**Kalit so`zlar:** Zamonaviy lingvistika, olam manzarasi, olamning lisoniy manzarasi, til, tarix, tarixiylik, majburiylik, odatiylik.

**Ключевые слова:** Современная лингвистика, языковой ландшафт, языковой ландшафт мира, язык, история, историчность, обязанность, обычай.

**Key words:** Modern linguistics, linguistic landscape, linguistic landscape of the world, language, history, historicity, obligation, custom.

Zamonaviy tilshunoslikning lingvokulturologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistika singari bir necha yo`nalishlarida tadqiq etilayotgan tushunchalardan biri bu- olamning lisoniy manzarasi tushunchasi hisoblanadi. Ushbu tushunchaga dunyo tilshunoslari tomonidan ko`plab ta`riflar berilgan. Mavzuga oid tadqiqotlar olib borishda E. S. Yakovleva, L. M. Dmitrieva, Yu. N. Karaulov, O. I. Glazunova, Z. D. Papova singari olimlarning xizmatlari kattadir. Jumladan, E.C. Yakovleva olamning lisoniy manzarasini olamni til prizmasi orqali o`ziga yarasha idrok etish<sup>12</sup> deb talqin qiladi. L. M. Dmitriyeva

<sup>12</sup> Яковлева Е.С. Фрагменты русской языковой картины мира// Вопросы языкоznания. – Москва, 1994. - №5. –C.73-89.



olamning lisoniy manzurasiga “olamning til ko`zgusida aks etishi” sifatida ta’riflagan<sup>13</sup>. Yu. N. Karaulov esa “Olamning lisoniy manzarasi mazkur tilning yaxlit holda olingen butun konseptual mazmunidir”, - deya qayd etadi<sup>14</sup>.

So`nggi yillarda o`zbek tilshunosligida ham ushbu masalaning tadqiqiga oid bir necha ta’riflarni kuzatish mumkin. Xususan, tilshunos olim N.Mahmudov “Olamning lisoniy manzarasi tegishli til jamoasi ongida tarixan shakllangan va uning tilida barqarorlshgan dunyo haqidagi tasavvurlar, dunyoni anglash va bo`laklash usullarining jami bo`lib, u mazkur til sohiblarining barchasi uchun odatiy, tabiiy va majburiydir. Ayni shu odatiylik, tabiiylik va majburiylik olam lisoniy manzarasining bardavomligini, davrlararo til jamoasida tirikligi va vorisiyligini, avloddan avlodga o’tib kelaverishini ta’minlaydi”, - deya ta’kidlaydi<sup>15</sup>. Bundan tashqari, D. K. Baxronova mavzuga doir monografiyasida shunday yozadi: “Olam manzarasi termini bu yorug` olamda inson va insoniyatning o’z o’rnini aniqlashga harakat qiluvchi dunyosini umumiy jihatdan ta’riflovchi obraz va tushunchalarni anglatadi. Insonga borliqda muayyan o’rin ajratuvchi olam manzarasi unga turmushda to`gri yo`nalish olishga yordam beradi va odamlarning ma’naviy-amaliy faoliyatining natijasi hisoblanadi. Olamning ilmiy, diniy, falsafiy va hokazo manzaralari borliq va insonning undagi o’rniga nisbatan o’ziga xos qarash beradi”<sup>16</sup>. Shuningdek, tilshunos olima D. Xudoyberganova ham ushbu masalaga quyidagicha ta’rif beradi: “Olamning lisoniy manzarasi –olamni idrok etishning muayyan til jamoasi ongida tarixan shakllangan, uning tilida barqarorlashgan va ayni shu jamoa uchun xos bo`lgan odatiy hamda majburiy usullari majmui; olamni idrok etish va konseptuallashtirishning universal va ayni vaqtida milliy xoslangan usullari yig`indisi. Har bir tabiiy til olamning o’ziga xos lisoniy manzarasi hisoblanadi”<sup>17</sup>.

<sup>13</sup> Дмитриева Л.М. Топонимическая картина мира: отражение бытейных ценностей//Язык. Человек. Картина мира: Мат-лы все Росс. Конф. –Омск,2000-С. 37-41.

<sup>14</sup> Карапулов Ю. Н. Обшая и русская идеография. – М.: Наука, 1996.-264с

<sup>15</sup> Mahmudov N. Til tilsimi taddiqi.- Toshkent. “MUMTOZ SO’Z”, 2017. 143-bet

<sup>16</sup> Baxronova D. K. Olam manzarasining milliy-madaniy va lingvokognitiv kategoriyalanishi. – Toshkent, “TURON - IQBOL”2021. 28-bet

<sup>17</sup> Худойберганова Д. Лингвокультурология теръинларининг кискача изохли лугати. – Ташкент: Турон замин зиё, 2015. – Б.33.



Yuqoridagi fikrlardan xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, olamning lisoniy manzarasi serqirra bo`lib, olamning boshqa manzaralarini, fizik, kimyoviy, biologik yoki she’riy, mifologik, diniy singari turlicha manzaralarini yoritishda ham dastavval olamning lisoniy manzarasidan foydalilaniladi. Ya’ni, tilshunos olim N. Mahmudov ta’biri bilan qayd etganda, olamning manzarasi yuqorida sanalganlardan oldin bo`lib, mazkur manzaralarni shakllantiradi, chunki inson til tufayligina olamni va o`zini anglash qobiliyatiga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Яковлева Е.С. Фрагменты русской языковой картины мира// Вопросы языкознания. – Москва, 1994. - №5. –С.73-89.
2. Дмитриева Л.М. Топонимическая картина мира: отражение бытейных ценностей//Язык. Человек. Картина мира: Мат-лы все Росс. Конф. –Омск,2000-С. 37-41.
3. Карапулов Ю. Н. Обшая и русская идеография. – М.: Наука, 1996.-264с
4. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi.- Toshkent. “MUMTOZ SO‘Z”, 2017. 143-bet
5. Baxronova D. K. Olam manzarasining milliy-madaniy va lingvokognitiv kategoriyalanishi. – Toshkent, “TURON -IQBOL”2021. 28-bet
4. Худойберганова Д. Лингвокультурология теръинларининг кискача изохли лугати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б.33.